

## KITOB-TAFAKKUR QUROLI

**Mallayeva Gulshada Maxmudjonovna**  
Angren universiteti, “Pedagogika va Psixologiya”  
Kafedrasi o‘qituvchisi

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada hadis tarixi, kitob mutoaalasi, Ibn Aqiyl va stressdan chiqishda kitobning roli, kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** “Al-jome as-sahih”, “Funun”, kitobxonlik madaniyati, kitobxonlik an‘analari, tafakkur quroli, kitobga muhabbat, o‘qishga ishtiyoq.

### АННОТАЦИЯ

В данной статье рассказывается об истории хадисов, книгочтении, Ибн Акыле и роли книг в снятии стресса, поднятии и популяризации культуры чтения.

### ABSTRACT

This article talks about the history of hadith, book reading, Ibn Aqeel and the role of books in relieving stress, raising and promoting reading culture.

Kitobsiz taraqqiyotga, yuksak ma’naviyatga erishib bo‘lmaydi.  
Kitob o‘qimagan odamning ham, millatning ham kelajagi yo‘q  
**(Sh. Mirziyoyev).**

Bir kuni mashriq diyoridagi muhaddislar ustoz, hofizlar sayyidi, ulug‘ muhaddis olim Isxoq Ibn Rohavayx hadisdan dars berar ekan, shogirdlariga nazar solib, ularga: “Rasululloh sallallohu alayhi va sallamdan rivoyat etilgan sahih hadislarni jamlab, muxtasar kitob yozsangiz yaxshi bo‘lar edi”, dedi. Ushbu birgina so‘z qisqa bo‘lishiga qaramay xayrli bir ishning boshlanishiga turtki bo‘ldi. Ushbu birgina so‘z insoniyatga odam bolasi tomonidan amalga oshirilgan eng buyuk ishni taqdim etdi. Ushbu birgina so‘z Movarounnahr diyorida kelgan bir ajam tolibi ilmining qalbiga yo‘l topti. U aytadi: “Ushbu so‘zni eshitganda qalbimda shu ishni amalga oshirishga niyat paydo bo‘ldi va “Al-jome as-sahih” kitobini yozishga kirishdim”. Shu yerda birgina so‘zning ta’siri yaqqol ko‘rinadi. Birgina so‘z sababli Payg‘ambarimizning so‘zlari, sunnatlari va siyratlariga tegishli eng sahih hadislarni o‘zida jamlagan kitob vujudga keldi. Ushbu

birgina soʻz mazkur tolibi ilmning qalbida oʻn olti yildan ortiq vaqt oʻt boʻlib yondi, unga kuch berib turdi, «Sahih» nomli kitobini yuksak himmat va toʻxtovsiz izlanish bilan yozishga undadi. Bu tolibi ilm Muhammad ibn Ismoil Buxoriydir.

Yurtboshimizning “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutoaalasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targʻib qilish boʻyicha kompleks chora-tadbirlar dasturi toʻgʻrisida”gi qarori ijrosi yuzasidan joylarda kitobxonlik, mutolaa madaniyatini targʻib qilishga qaratilgan tadbirlar davom etmoqda. Jumladan, Angren universiteti jamoasi “Bir oyda – bir kitob” tashabbusini joriy etdi. Loyihaning maqsadi yoshlarda, aholining ziyoli qatlamlari orasida kitobxonlik anaʼnalarini rivojlantirish, kitobga mehr-muhabbatini uygʻotishdan iborat. Sir emaski, keyingi paytlarda internet, telefon, kompyuter kabi axborot texnologiyalarining hayotimizga kirib kelishi nafaqat yoshlar balki, katta yoshli aholi, ota-onalar oʻrtasida ham kitobxonlikning susayishiga sabab boʻldi.

Kitob insonning eng yaxshi doʻsti va maslahatchisi, uning donolik va bilim manbaidir. Kitob tafakkur quroli, xazina kaliti, tafakkur manbai boʻlgani uchun xalqimiz uni qadrligi, obroʻli, muqaddas deb bilgan. Shu bois kitobga muhabbat, qadrlash, oʻqishga ishtiyoq xalqimizning qon-qoniga singib ketgan. Inson madaniyati ularning kitobida aks ettirilgan. Bu bizga ajdodlarimizdan meros qadriyatidir.

Biz kitoblardan kundalik hayotda qoʻllashimiz mumkin boʻlgan dunyo, odamlar va tarix toʻgʻrisidagi yangi maʼlumotlarni oʻrganamiz desak mubolagʻa boʻlmaydi. Ushbu maqolaga maʼlumot toʻplash jarayonida “Eng koʻp kitob yozgan olim” haqidagi qiziqarli maʼlumotga duch keldim.

Ibn Aqiyl rahimahullohning birgina “Funun” nomli kitobi 800 jilddan iborat boʻlgan. Odam alayhissalomdan hozirga qadar hech kim bunday katta hajmda kitob yoza olmagan. Ibn Aqiyl aytgan ekan: “Hozir yoshim 80 da, lekin hali ham kitob yozishga himmatim bor. Men sizlar ovqatlangandek ovqatlanmayman. Vaqtimni qizgʻanganim sababli qattiq nonni suvga boʻktirib, kitob yozayotgan joyimda yeyaveraman. Ovqat uchun alohida vaqt ajratishga esa toqatim yoʻq”.

Xuddi shunday, umr yashab oʻtilgan yillar bilan emas, bu umrda amalga oshirilgan solih amallar bilan oʻlchanadi.

Asrlar davomida kitob mavqei, obroʻsi, darajasi nima uchun tushib qolmadi, chunki kitob bashariyatga muammo yechimida, ruhiy tushkunlikda, zulmatni tark etishda mayoq vazifasini oʻtaydi. Kitob insonni davolashi haqida eshitganmisiz? Psixologlar oʻz mijozlariga kitob tavsiya qilishining sababi, u kitob orqali oʻz muammosidan chiqadi, ruhiy hotirjamlik topadi.

Masalan, psixolog sizning muammongiz bilan tanishgach, aynan shu yoki shunga oʻxshash muammoga duch kelgan odam haqidagi badiiy kitob (biografiya yoki avtobiografik asar boʻlishi ham mumkin)ni tavsiya qiladi. Kitobni oʻqib, qahramon

bilan ma'lum bir yo'llarni bosib o'tar ekansiz, sizga insaytlar (avval ma'lum bo'lmagan yechimni to'satdan anglash) keladi.

Psixolog sizga istalgan janrdagi, mazmundagi kitoblarni tavsiya qilishi mumkin. Ularning har biri o'ziga xos holatlarga mo'ljallangan. Masalan:

- Detektiv va sarguzasht kitoblar-real vaziyatdan chiqishga;
- Ilmiy-fantastik adabiyot-faollikka chorlaydi va tasavvurni kuchaytirishga;
- Tarixiy asarlar-hayotdagi maqsadni aniqlashtirishga;
- Diniy, axloqiy kitoblar-insonparvarlik, sabrni tarbiyalashga;
- San'at haqidagi kitoblar-hayrat hissini oshirishga;
- Yumor va satira janridagi asarlar-ijobiy kayfiyat va psixologik himoya hissini oshirishga;
- Ilmiy kitoblar-o'z muammosi haqida yaxshiroq axborot olishga;
- Aforizmlar to'plami-fikrlarni tartiblash va tiniqlashtirishga;
- Hayvonlar haqidagi kitoblar-tinchlantirsa,
- Badiiy adabiyot (klassika) har tomonlama inson shuuriga ta'sir qila oladi.

Kitob nafaqat bilim va dunyoqarashni oshirishda, balki ruhiyatimizga muvozanat berishda ham foydali manbaa hisoblanadi.

Har bir insonning o'ziga xos qiziqishlari bor. Hamma odamlar bo'sh vaqtlarini turlicha o'tkazishadi. Kimdir sportga, kimdir raqsga, yana kimdir qarta o'ynashga qiziqsa, yana kimdir kitob o'qishga mukkasidan ketadi.

Kichkinaligimda onam menga turli ertaklar o'qib berardi. Kitoblardan juda ko'p foydali narsalarni o'rgandim va hayot yo'llarimda asqotdi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek, "Kitob mutolaasiga havas avvalo, oiladan boshlanishi, ot-onalar farzandlarida kitob o'qishga mehr uyg'otishi uchun o'zlari kitobxon bo'lishlari lozim". Biz ham farzandlarimizning, o'quvchilarimizning kitobxon bo'lishi, kitobga mehr uyg'otish uchun avvalo o'zimiz namuna bo'lishimiz lozim. Olimlarning ta'kidlashicha, bola miyasining 90% uning 3 yoshiga qadar rivojlanib bo'ladi. Shu davrda bolaga kitob o'qib berish miya rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatar ekan. Biz mana shu fursatdan unumli foydalanib qolishimiz lozim.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh Mirziyoyeyning 2017-yil 13-sentyabr kuni qabul qilingan PQ-3271 sonli qarori.
2. Hadislar to'plami.
3. A'zamov B. Elektrton qo'llanmalar. 2021
4. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/09/01/school-library/>